

AYOLLAR YETAKCHILIGI: SIYOSAT, TALIM VA BISNESDAGI YANGI AVLOD

Po'latova Munajat**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti****Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti****"Tarix" yo'nalishi 1-kurs talabasi****Nurullayeva Shoirra****Ilmiy rahbar Tarix fanlari nomzodi, dotsent****Elektron pochta: munajatpolatova318@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17811398>**

Annotatsiya: Mazkur maqola Markaziy Osiyoda ayollar yetakchiligining o'sish omillarini, xususan ta'lim tizimidagi islohotlarni, yosh avlod uchun yaratilayotgan sharoitlarni tahlil qiladi. Shuningdek yangi avlod ayollarining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ta'siri o'rganiladi. Yangi avlod yetakchiligining asosida ta'lim turgani, ta'lim esa jamiyat taraqqiyotining bosh mezonini ekani alohida yoritiladi.

Аннотация. В статье анализируются факторы, способствовавшие росту женского лидерства в Центральной Азии, в частности, реформы системы образования и условия, создаваемые для молодого поколения. Также рассматривается влияние нового поколения женщин на политическую, социальную и экономическую жизнь. Подчеркивается, что образование является основой лидерства нового поколения, а образование – главным критерием развития общества.

Abstract. This article analyzes the factors that have led to the growth of women's leadership in Central Asia, in particular, reforms in the education system, and the conditions being created for the younger generation. It also examines the impact of the new generation of women on political, social, and economic life. It highlights that education is the foundation of the new generation's leadership, and education is the main criterion for the development of society.

Kalit so'zlar: ayollar yetakchiligi, gender tenglik, ta'lim, siyosat, biznes, yoshlar faolligi, zamonaviy jamiyat, volontyorlik, raqamli texnologiyalar, oila omili, IT sohasi.

Keywords: women's leadership, gender equality, education, politics, business, youth activism, modern society, volunteerism, digital technologies, family factor, IT sector.

Ключевые слова: женское лидерство, гендерное равенство, образование, политика, бизнес, молодежный активизм, современное общество, волонтерство, цифровые технологии, семейный фактор, ИТ-сектор.

Markaziy Osiyoda xotin - qizlar yetakchiligi so'nggi yillarda keskin faollashib bormoqda, ayniqsa ta'lim sohasida yangi avlodning Uchinchi renessans quruvchilarini shakllanishiga katta turtki bo'lib kelmoqda. Ta'lim jarayonida ayollar nafaqat ishtirokchi, balki samaradorlikni oshiruvchi yetakchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Respublikamizda qizlarning oliy ta'limga kirish ko'rsatkichlari yildan-yilga oshib, ilmiy tadqiqotlar maydonida ham ularning salohiyati yaqqol namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz tomonidan gender tenglikni qo'llab quvvatlash siyosati, qizlar ta'limini rag'batlantirish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi, jamiyatda gender tenglik tamoyillarini mustahkamlabgina qolmay, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror modelini yaratishda qo'l kelmoqda. Xotin - qizlar pedagog sifatida ta'lim boshqaruvi tizimida ham yetakchi o'rinlarni egallay boshladi.

Ular maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'lim tizimigacha yangicha boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etib, kreativ fikrlash, shaffoflik va sifat tizimlarini kuchaytirmoqda. Natijada ta'lim muassasalari nafaqat rivojlanmoqda, balki zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va sifatli ta'lim standartlari asosida rivojlanishning mutlaqo yangi bosqichiga ko'tarilib, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilayotgan kuchli intellektual maskan sifatida shakllanmoqda. Bugungi yangi avlod qizlari raqamli savodxonlikni egallab, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda faol qatnashyabdilar. Masofaviy ta'lim, elektron darsliklar, onlayn baholash tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining joriy etilishida jonkuyar ayol mutaxassislar muhim o'rin egallagan. Ayniqsa qishloq hududlarida faol ayol o'qituvchilarning tashabbuslari sababli ko'plab o'quv markazlari, kasb-hunar markazlari ochilib, yoshlarning sifatli ta'limga bo'lgan imkoniyatlari yanada kengaymoqda. Ta'limning zamonaviylashuvi ayol olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy loyihalardagi ishtirokini kuchaytirdi. Ular ekologiya, psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, tarix, tibbiyot va boshqa yo'nalishlarda innovatsion g'oyalarni ilgari surib, jamiyat taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shib kelmoqdalar. Yosh olimlar - qizlar uchun grantlar, stipendiyalar va qo'llab - quvvatlash dasturlarining ko'payishi yangi ilmiy avlod shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Ayollar yetakchiligining ortishi biznes va siyosat sohasida ham sezilarli bo'lib, bu jarayonning ildizida ham aynan ta'limning kuchi yotadi. Kuchli ta'lim olgan ayol - kuchli mutaxassis, ijtimoiy faol shaxs va o'z jamiyatining rivojiga ta'sir ko'rsata oladigan yetakchidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim sohasi ayollari yetakchiligini rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim maydon sifatida e'tirof etiladi.

Kelajakda Markaziy Osiyoda raqobatbardosh, kreativ fikrlaydigan, global jarayonlarni tushunadigan ayol yetakchilar avlodi aynan ta'limni qo'llab - quvvatlagan muhitda voyaga yetadi. Shu bois, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va ularni ilm - fanga keng jalb qilish - jamiyat taraqqiyotining eng muhim strategik vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda zamonaviy ayol yetakchilar raqamli savodxonlik, innovatsion va tizimli fikrlash, ijtimoiy faollik, ta'lim va oila omili kabi jihatlari bilan ajralib turadilar. Shu o'rinda mazkur jihatlarni alohida yanada teran ilmiy tahlil qilib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli savodxonlik - bu borada informatsion texnologiyalarni chuqur egallagan va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalana oladigan, shuningdek, global jarayonlarni tahlil qila oladigan ayollar safi izchil ortib bormoqda. Bugungi kun ayol yetakchilari nafaqat texnologik jarayonlarni kuzatib boradi, balki raqamli iqtisodiyot tendensiyalarini bashorat qilish, xalqaro raqobat muhitini anglash hamda global innovatsion oqimlarga tez moslashish qobiliyatiga ham ega. Natijada, zamonaviy boshqaruv, ta'lim, biznes va ilmiy faoliyatda yuqori samaradorlik ko'rsatib, jamiyatning raqamlashtirish jarayonida strategik ahamiyat kasb etuvchi yetakchi ayollar avlodi tobora faol maydonga chiqmoqda.

Innovatsion va tizimli fikrlash - zamonaviy startup ekotizimi, ilmiy tadqiqotlar va strategik boshqaruv jarayonlarida ham ayollar yangi g'oyalarni ilgari surib, ularni amalga oshirishning amaliy mexanizmlarini puxta ishlab chiqmoqda. IT sohasidagi startaplar, ijtimoiy innovatsiyalar, raqamli xizmatlar yaratish bo'yicha tashabbuslar ayollar tomonidan muvaffaqiyatli boshqarilayotgani, zamonaviy ayol yangi avlod innovator, boshqaruvchi va ilmiy liderlar ekanligini yana bir bor isboti desak adashmaymiz.

Ijtimoiy faollik - volontyorlik faoliyati, fuqarolik jamiyati tashabbuslari va jamoatchilik nazoratlarida ham bugungi kun ayoli faol pozitsiyani egallamoqda. Ular ijtimoiy loyihalar, ekologik harakatlar, xayriya aksiyalari va mahalliy tashabbuslarda ham muhim o`rin egallab, jamiyatda yangi, mas`uliyatli, ongli va faol fuqarolik madaniyatini shakllantirishga hissa qo`shib kelmoqdalar. Ayollar tomonidan boshqarilayotgan ijtimoiy tashabbuslar aholining turli qatlamlari bilan ishlashda samaradorlikni oshirib, ijtimoiy muammolarning yechimlarini ijobiy takliflarini bildirgan holda, jamoatchilik nazorati va ochiqlik tamoyillarining kuchayishiga, shuningdek davlat va jamiyat o`rtasida samarali muloqotning qaror topishiga xizmat qilmoqda. Natijada ayollar ijtimoiy hayotning yangi, yanada barqaror va adolatli madaniyatini shakllantiruvchi asosiy subyektlardan biriga aylangan.

**Ta`lim va oila omili** - qiz bolalarning oilada qo`llab - quvvatlanishi, ularning qobiliyati va intilishlarini qadrlash, ta`lim olishga bo`lgan e`tiborning kuchayishi yangi avlod yetakchi ayollarning shakllanishida asosiy omil bo`lib xizmat qilmoqda. Ta`lim tizimida yaratilayotgan imkoniyatlar - zamonaviy maktablar, texnoparklar, stipendiyalar, oliy ta`lim grantlari - qizlarning bilim va salohiyatini keng ochib berishga zamin yaratmoqda. Oila va ta`limning uyg`un ta`siri bugungi avlod qizlarida mas`uliyat, mustaqil fikrlash, maqsadga intilish va tashabbuskorlik kabi fazilatlarni shakllantirib, jamiyatda har bir sohada faol yangi avlod ayollarini tarbiyalamoqda.

Yetakchi ayollar gender tenglik madaniyatining shakllanishida, yoshlarni yangi maralarga undovchi namuna bo`la oladi, ijtimoiy tenglik siyosatini rivojlantiradi, adolat, bag`rikenglik va hamkorlik kabi qadriyatlarni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ayollar yetakchiligi siyosat, ta`lim va biznesning barqaror rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Globallashuv sharoitida yangi avlod zamonaviy ayol yetakchilar bilimli, ijtimoiy faol, raqamli savodxon va innovatsion fikrlovchi shaxslar sifatida jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shib kelmoqda desak adashmaymiz. Kelgusida ayollar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish, ta`lim sifatini oshirish, qo`llab - quvvatlash dasturlarini rivojlantirish, gender tengligini mustahkamlashning muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib qoladi. Milliy taraqqiyotning poydevorini yanada mustahkamlovchi intellektual va ijtimoiy kuch, bugungi avlod qizlarini taraqqiyot umidi va ishonchi deya e`tirof etish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Gender tenglikni mustahkamlash bo'yicha Strategiya" qarori, 2021.
2. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2023. Geneva: World Economic Forum, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Xotin - qizlar qo'mitasi. Ayollar yetakchiligi va ijtimoiy faollik - Tashkent: Xotin - qizlar qo'mitasi nashri, 2022.
4. Abdullayeva, N. Markaziy Osiyoda ayol yetakchiligi: siyosat va iqtisodiyot - Tashkent: Ilmiy nashr, 2021.
5. Rustamova, M. Biznesda ayollar: zamonaviy tendensiyalar - Tashkent: Tadqiqot markazi nashri, 2021.